

# **“IPOTEKA-BANK” AKSIYADORLIK TIJORAT IPOTEKA BANKIDA OMONATLARNI QABUL QILISH QOIDALARI**

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka bankida omonatlarni qabul qilish qoidalari (keyingi o‘rinlarda «Qoidalar») O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 2 iyulda 3030-son bilan ro‘yxatga olingan “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking 2019 yil 16 noyabrdagi “Tavakkalchilikka asoslangan prudensial nazorat doirasida ayrim bank operasiyalarini amalga oshirishning optimallashtirilgan tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 28/2-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Qoidalar «Ipoteka-bank» ATIB (keyingi o‘rinlarda «Bank») tizimida Bank omonati xizmatlarini taqdim etishning umumiy shartlarini, omonatlarni rasmiylashtirish tartibini, ushbu jarayondagi Bankning va omonat joylashtirayotgan jismoniy shaxslarning (keyingi o‘rinlarda «Omonatchilar») huquq va majburiyatlarini, taraflarning javobgarligini hamda Bank va Omonatchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa shartlarni Omonatchilarga ma'lum qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

## **II. OMONATLARNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI**

2.1. Bank omonat shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. Bank tizimida fuqaroligidan qat'iy nazar muomala layoqatiga ega bo‘lgan har qanday jismoniy shaxs o‘z nomiga va boshqa shaxs nomiga omonat qo‘yishi, o‘zining bank omonat hisobvarag‘idagi mablag‘ini o‘zi yoki vakili orqali mustaqil tasarruf etishi, shuningdek boshqa shaxslar omonat mablag‘larini tasarruf etish uchun vakil bo‘lishi mumkin.

2.2. Bank omonat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Bank omonat shartnomasi qat'iy hisobda turuvchi blanka hisoblanadi (bundan Bankda hisobvarag‘i ochilgan jismoniy shaxslar tomonidan oferta asosida (shu jumladan, mobil ilova orqali) qo‘yilgan omonatlar mustasno) va omonatni rasmiylashtiruvchi Bank xodimi tomonidan kompyuter vositasida to‘ldirilib Omonatchiga taqdim qiladi. Ushbu qoidaga zid ravishda tuzilgan omonat shartnomalari o‘zo‘zidan haqiqiy emas.

2.3. Bank va Omonatchilar o‘rtasida bank omonat shartnomasi, omonat summasi bank kassasiga qabul qilingan yoki omonat hisobvarag‘iga tegishli mablag‘lari naqd pulsiz kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Omonat qabul qilinganligi va tegishli hisobvaraqa kirim qilinganligi haqida mijozning mobil telefon raqamiga SMS-xabarnoma yuboriladi.

2.4. Oferta asosida omonatlar ofertani elektron shaklda akseptlash orqali qo‘yiladi. Ofertani belgilangan muddatda olgan shaxsning ofertani akseptlash maqsadida unda ko‘rsatilgan shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan qilgan harakatlari, agar qonun hujjatlarida yohud ofertada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoki qayd etilmagan bo‘lsa, aksept hisoblanadi. Aksept o‘z navbatida Omonatchining shartnoma shartlari bilan tanishib chiqqanligi va shartnomaning barcha shartlarini qabul qilganligini bildiradi.

2.5. Bankka qo‘yiladigan omonatning eng kam va eng ko‘p miqdori Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

2.6. Bank tomonidan omonatchilar yoki ularning qonuniy vakillarining yozma topshirig‘iga binoan omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lariga doir bank amaliyotlari bo‘yicha amalga oshirilgan xizmatlari uchun Bank tariflariga muvofiq vositachilik haqi undiriladi.

2.7. Bank omonatlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarning qonun hujjatlarida belgilangan talablarga amal qilgan holda sir saqlanishini ta'minlaydi. Bunday ma'lumotlar uchinchi shaxslarga “Bank siri to‘g‘risida”gi qonun talablariga qat'iy amal qilingan holda taqdim qilinishi mumkin.

2.8. Bank omonat mablag'larini shartnomada ko'rsatilgan muddatga qabul qiladi. Pul mablag'larini saqlash muddati tugaganda shartnomada ko'rsatilgan omonat turi bo'yicha Bank belgilangan tartibda Omonatchiga uning pul mablag'larini to'liq hajmda va unga foizlar ko'rinishida daromadni ushbu shartnomada kelishilgan foiz miqdorida to'lab beradi.

2.9. Omonatga foizlar kunlik, bir yil uchun 365 kunga hisoblanadi, ya'ni foizlar oylik hisoblanganda omonatga qo'yilgan muddat davrida o'sha oylar necha kundan iborat bo'lsa shuncha kunga hisoblanadi.

2.10. Omonat summasiga foizlar omonat mablag'i Bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u Omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra Omonatchining hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha bo'lgan davrga hisoblanadi. Omonatchining hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida Bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalana olmagandav uchun foizlar yozilmaydi.

2.11. Omonatchi (yoki uning ishonchli vakili) omonat mablag'larini muddatidan oldin olganda, foizlar amaldagi "talab qilib olinguncha" omonati foizi hisobidan to'lab beriladi va Omonatchiga to'lab berilgan foiz mablag'lari omonat summasidan chegirib qolinadi.

2.12. Agar omonat muddati tugagandan so'ng Omonatchi tomonidan omonat mablag'larini qaytarib berishni talab etilmagan yoki boshqa hisobvaraqa qayta rasmiylashtirilmagan yoki boshqa omonat turiga rasmiylashtirilmagan hollarda, omonat mablag'lari summasiga omonat qaytarilgan kunga qadar amaldagi "talab qilib olinguncha" omonat turi foiz miqdorida foizlar hisoblab boriladi (omonat qoidalarida belgilangan shartlar bundan mustasno).

2.13. Agar Omonatchi jamg'arma va muddatli omonatni bank omonat shartnomasida ko'rsatilgan holatlar yuz bergunga qadar qaytarib berishni talab qilmoqchi bo'lsa, u bu haqda Bankni omonatni olishni rejalashtirayotgan sanadan kamida bir kun oldin xabardor qilishi lozim.

### **III. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

3.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Omonat qoidalarini va shartlarini, xizmat ko'rsatish tariflarini mustaqil belgilash;

3.1.2. Omonatchining hisobvarag'i harakati va boshqa ma'lumotlarni Omonatchining uyali aloqa telefoniga SMS-xabarnoma ko'rinishida yuborish;

3.1.3. Omonatchi yoki uning vakilidan hisobvaraqa ochish hamda amaliyotlarni bajarishda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatilishini talab qilish va uning nusxasini olish;

3.1.4. Bank omonatining amal qilish muddati davomida Bank Omonatchining omonatdagi pul mablag'larini kredit yoki boshqa moliyaviy resurslari sifatida foydalanish;

3.1.5. Omonatchi yoki uning vakili topshirig'iga binoan omonat hisobvarag'ida turgan pul mablag'lari bilan bank amaliyotlarini amalga oshirganlik uchun bank taraflariga muvofiq haq olish;

3.1.6. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.2. Bank quyidagilarga majbur:

3.2.1. Omonatchini amaldagi omonat qoidalarini bilan tanishtirish;

3.2.2. Omonat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shartnomalar tuzilishidan avval bepul taqdim etish;

3.2.3. Omonat xizmatlarini taqdim etish shartlari, ushbu shartlarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilish, shuningdek bankning axborot stendlarida doimiy ravishda joylashtirib borish;

3.2.4. Omonatchining talabiga ko'ra omonatning qaytarilishi kafolatlanganligi to'g'risida axborot berish;

3.2.5. Bank iste'molchiga yoki uning vakolatli vakiliga bank xizmatini ko'rsatish to'g'risida shartnoma imzolangan kunda shartnomaning bitta asl nusxasini taqdim etishi kerak.

3.2.6. Omonat mablag'lariga bank qoidalarini va omonat shartnomasida belgilangan tartibda foizlarni hisoblash;

3.2.7. Omonatchining tegishli hisobvarag'idagi pul mablag'lari daxlsizligini va saqlash muddati tugaganida to'liq hajmda foizlar bilan birga qaytarilishini ta'minlash;

3.2.8. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq omonatni sir saqlanishini ta'minlash;

3.2.9. Omonatchilarning yozma topshirig'i asosida omonat hisobvarag'idagi mablag'larni boshqa hisobvaraqlarga o'tkazish;

3.2.10. Omonatchilar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan cheklovlar o'rnatmaslik;

3.2.11. Omonat shartnomasi shartlariga omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritmaslik;

3.2.12. Bank zimmasiga amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

3.2.13. Fuqarolarning bankdagi omonatlari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq kafolatlangan.

#### **IV. OMONATCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

4.1. Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Omonat mablag'laridan bank omonati shartnomasi va boshqa qonun hujjatlari doirasida erkin tasarruf etish,

4.1.2. Bank omonati bo'yicha foiz, yutuq yoki boshqa shakldagi daromadlarni olish;

4.1.3. Omonatni to'liq yoki qisman qaytarib olish;

4.1.4. Omonat hisobvarag'idagi mablag'larni boshqa hisobvaraqlarga o'tkazish;

4.1.5. Omonat rasmiylashtirilganligini tasdiqlovchi hujjatni Bankdan olish;

4.1.6. Bank tomonidan ko'rsatiladigan omonat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shartnoma tuzilishidan avval bepul olish;

4.1.7. Bank tomonidan omonat xizmatlarini taqdim etish shartlari, ushbu shartlarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar bankning rasmiy veb-saytida, shuningdek bankning axborot stendlarida doimiy ravishda tanishib borish;

4.1.8. Bank omonatning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan yoki uning shartlarini yomonlashtirgan taqdirda, Bankdan omonat summasini darhol qaytarib berishni, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasiga muvofiq unga foizlar to'lashni hamda o'ziga etkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

4.1.9. Omonatchi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Omonatchi quyidagilarga majbur:

4.2.1. Omonatchining va amaliyotning boshqa ishtirokchilarini identifikatsiyalash imkonini beruvchi amaldagi (taqdim etilgan sanada haqiqiy bo'lgan) hujjatlarni Bankka taqdim etish;

4.2.2. Omonat qoidalari va Bank oferta qilgan omonat shartnomasi bilan tanishib chiqish;

4.2.3. Omonat shartnomasini belgilangan tartibda saqlash, omonat shartnomasi yo'qolgan hollarda bu haqida Bankni darhol xabardor qilish;

4.2.4. Omonatni tasarruf etish huquqini uchinchi shaxslarga berganida, ishonchnomani amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirish hamda ishonchnomada ishonchli vakilning vakolatlarini aniq belgilab berish;

4.2.5. Omonat mablag'larini topshirishda amaldagi qonun hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga to'liq rioya qilish xususan, omonat mablag'larini shaxsan o'zi yoki vakili orqali bevosita Bankning tegishli bank kassalariga topshirish;

4.2.6. Omonat mablag'larini omonatni qabul qilish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslarga, shu jumladan omonat qabul qilish vazifasi yuklatilmagan Bank xodimiga topshirmaslik;

4.2.7. Omonat mablag'lari Bankning omonat kassa xodimi tomonidan qabul qilib olinganidan so'ng, omonat qabul qilinganligini tasdiqlovchi shartnoma nusxasini olish va ushbu shartnomani o'zida saqlash;

4.2.8. Jamg'arma va muddatli omonat mablag'larini saqlash muddati tugamasdan olish istagi bo'lsa, bu haqda Bankni omonatni olishni mo'ljallanayotgan sanadan kamida bir kun oldin xabardor qilishi;

4.2.9. Bank tomonidan Bankning rasmiy veb-saytida, shuningdek bankning axborot stendlarida joylashtirib boriladigan e'lonlar, bank xizmatlarini taqdim etish shartlari, ushbu shartlarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishib borish;

4.2.10. Omonatga qo'shimcha mablag'lar qabul qilishda omonatchi nazoratchiga omonat shartnomasini va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilishi shart.

## **V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.**

5.1. Tomonlar o'zlarining shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

5.2. Bank, Omonatchining amaldagi qonun hujjatlari, Bank qoidalari va bank omonat shartnomasi shartlariga rioya etmasdan yoki qonunbuzarliklarga yo'l qo'yishi oqibatida omonat mablag'lariga etkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

## **VI. FORS MAJOR.**

6.1 Taraflarning biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini fors-major holatlarida, ya'ni taraflarning erki va istagidan tashqari vujudga kelgan hamda ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etishi mumkin bo'lmagan holatlar (Hukumat va Markaziy bankning qarorlari, zil-zila, suv toshqini, yong'in, boshqa tabiiy ofatlar, epidemiya)da bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar. Majburiyatni to'liq bajarishdan ozod qilinishi uchun fors-major holatlari asos bo'ladi.

## **VII. BOSHQA SHARTLAR.**

7.1. Omonatga mablag' qo'yishda hamda omonatdan chiqim amaliyotlarni bajarganda Omonatchi yoki uning ishonchli vakillari qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsini tasdiqlovchi va boshqa zaruriy hujjatlarni Bankka taqdim etishi lozim.

7.2. Omonatchi omonat shartnomasini tuzish chog'ida Bank tomonidan ma'lumot berib borish uchun kerak bo'ladigan bog'lanish aloqa vositalarini Bankka ma'lum qilishi talab etiladi.

7.3. Omonatchi omonatini ishonchli vakili orqali tasarruf etishi uchun ishonchli vakiliga belgilangan tartibda ishonchnoma rasmiylashtirishi shart. Ishonchnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 10-bobiga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. Ishonchnomada amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda ishonchnoma berilgan kundan boshlab bir yil davomida o'z kuchini saqlaydi.

7.4. Bankka ishonchnomaning asl nusxasi taqdim etiladi, Bank mas'ul xodimi ishonchnomadan nusxa ko'chirib olgach ishonchnoma uni taqdim qilgan shaxsga qaytarib beriladi.

7.5. Omonatchi ishonchnomani bekor qilgan taqdirda Bankning omonat rasmiylashtirilgan filialini yozma ravishda xabardor qilishi shart. Aks holda, Bank ishonchnoma bo'yicha berilgan omonat uchun bank javobgar hisoblanmaydi.

7.6. "Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Konvensiyaga (Kishinyov, 2002 yil 7 oktyabr) qo'shilgan davlatlarda rasmiylashtirilgan va vakolatli idoralar (odatda notariuslar) tomonidan muhr bilan tasdiqlangan ishonchnomalar asosida operasialarni amalga oshirishda Bank tomonidan qo'shimcha xujjatlar talab etilmaydi.

7.7. "Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi konvensiyaga (Gaaga, 1961 yil 5 oktyabr) qo'shilgan davlatlarda rasmiylashtirilgan ishonchnomalar

ishonchnoma berilgan davlatning vakolati organi tomonidan apostil bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

7.8. Ushbu Qoidalarining 7.6. va 7.7-bandlarida ko'rsatib o'tilgan Konvensiyalarga qo'shilmagan davlatlarda rasmiylashtirilgan ishonchnomalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 12.03.1997 yilda 313-son bilan ro'yxatga olingan Yo'riqnomada belgilangan tartibda legallashtirilganidan keyin Bank tomonidan qabul qilinadi.

7.9. Chet tillarida rasmiylashtirilgan (rus tili bundan mustasno) ishonchnomalar davlat tiliga tarjima qilingan va tarjimonning imzosi haqiqiyliги notarius tomonidan shahodatlanganidan so'ng qabul qilinadi.

7.10. Omonat merosxo'rga omonat shartnomasi yoki omonat daftarchasi (ushbu hujjatlar berilmagan yoki yo'qolgan hollar bundan mustasno), merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilinganda beriladi.

7.11. Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma asosida omonat berilayotganda Bank xodimi merosxo'ring shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlarini guvohnoma bilan solishtiradi hamda merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi olinib, asli qaytariladi.

7.12. Omonatchi hisobvarag'idagi pul mablag'lari tergov, surishtiruv organlarining qarori bo'yicha yoxud sud ajrimiga ko'ra xatlanganda, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda to'xtatib qo'yilganida Bank bir kun muddatda ushbu hisobvaraқ egasini yozma ravishda ogohlantirishi shart.

Ushbu hisobvaraқni xatlovdan echish uchun Omonatchi xatlovdan echishga asos bo'lgan hujjatlarni ilova qilgan holda Bank filialiga yozma ravishda ariza bilan murojaat qiladi. Bank ushbu arizaga asosan mijoz hisobvarag'ini ta'qiqdan echadi va keyingi kundan boshlab omonat qoldig'iga shartnoma shartlarida belgilangan foiz daromadi hisoblanadi.

Omonatchining hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraқdagi pul mablag'laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi.